

Sultonov Sulton Istamovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti

O'QITISHDA TA'LIM VOSITALARINI TANLASH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotasiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida vositalarini tanlash dolzarb, ta'lim jarayonining komponentlari, unda o'qitish va foydalaniladigan vositalar, muayyan maqsad – vazifalarni hal qilish uchun ta'limning usullari, mazkur jarayonda mustaqil ishlaydigan ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi hamda ko'rgazmali va texnik vositalar ishtiroki ta'minlanadi.

Kalit so'zlar. didaktik vositalar, ta'lim jarayoni, o'qitish vositalari, fanlar bo'yicha nazariy materiallar, fanlar bo'yicha amaliy materiallar, fanlar bo'yicha didaktik materiallar, laboratoriya va ustaxonalar jihozlari, amaliyotlar.

ВЫБОР ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ОБУЧЕНИИ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В данной статье актуален выбор средств в современной системе образования, обеспечиваются компоненты образовательного процесса, инструменты, используемые в нем, методы обучения для решения конкретных целей и задач, участие обучающегося и обучающего, а также наглядно – технических средств, самостоятельно работающих в данном процессе.

Ключевые слова: дидактические средства, образовательный процесс, средства обучения, теоретические материалы по дисциплинам, практические материалы по дисциплинам, дидактические материалы по дисциплинам, оборудование лабораторий и мастерских, практики.

Kirish. Ta'lim-tarbiya sohasida Respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, va jahon ta'limi andozlari talablarlariga mos keluvchi «Davlat ta'lim standartlari» da davr bilan hamnafas, ya'ni «Intellectual asr»ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko'zda tutilgan. XXI asrning faol ishtirokchisi esa keng ma'noda ta'lim – tarbiya va ularning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar bilan bog'langan holda barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek innovatsion jarayoni o'zida mujassamlashtiradi.

«Ta'lim to'g'risida» da ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish, «Ta'lim – fan – amaliyot» integratsiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Hozirgi kunda maktab ta'limi sistemasida o'qitish usullarining boy xazinasini to'plangan. Biz ta'limda to'g'ri usul, vositalarni tanlar ekanmiz, ko'zlangan natijaga komil ishonch va qisqa yo'l bilan erisha olamiz. Ta'lim-tarbiya sohasidagimasalalarning to'xtovsiz murakkablashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi, umumiy o'rta ta'lim vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish o'qitish vositalarini muttasil yangilab turishni, xalq pedagogikasi, ayniqsa milliy sharq xalqlari pedagogikasidan ijodiy foydalanish talab qilmoqda.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yoshavalodga o'rgatish - ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun – qoidalarini muttasil izlaganlar.

Ma'lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim – tarbiya sohasidagi yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq.

Shu ma'noda ta'lim–tarbiya berish bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi innovatsion jarayon bo'lib, oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv texnologiyalarini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bu talablarni bajarish ta'lim

- tarbiya jarayonini ilm - fan va texnika – texnologiyalarning eng so'ngi yutuqlari asosida, zamon talablarini hisobga olgan holda tashkil etish muammosimavjudligini ta'kidlaydi.

Ta'lim berish g'oyatda murakkab va mas'uliyatli ish, buning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, pedagogning ta'lim jarayonidagi rahbarlik rolini ta'minlashga urinish va harakatlarini saqlashga intilishi o'rtasidagi ta'limga xos dialektik ziddiyat aslida yuksalishning manbaidir.

O'qitishning didaktik vositalari va ularni o'rni bilan yangilab borish o'qituvchilar oldiga yosh avlodni kamol toptirishdek muhim vazifani qo'yadi.

Ta'lim maqsad, mazmun, o'qituvchining shaxsi, talabalardagi dastlabki bilimlarning xarakteri, o'qitishning moddiy – texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgiladi. Bunda o'qituvchi talabalar ishining borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o'zining ko'rsatmalari, yo'naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirishlari va hokozalar bilan ularning o'quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar kiritadi. Shunga ko'ra ta'lim **birinchidan**, o'qitish, **ikkinchidan**, o'qitishni, ya'ni o'qishni va shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

“Ta'lim ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi va umumfalsafiy metodologiyaga muvofiq bu qonunlar ta'lim jarayoni bilan ancha kengroq ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi umumiy, muhim zarur, barqaror aloqalardan, shuningdek, ta'limning alohida komponentlari, ya'ni uning maqsadi, mazmuni, shakli, usullari va uslublari o'rtasidagi ichki bog'lanishlardan iborat. Aniqlangan didaktik qonuniyatlardan qator asosiy talablar kelib chiqadi, ularga rioya qilish o'qituvchining sifatli va samarali amalga oshiruvini ta'minlaydi”.

Ta'lim jarayoni – ta'lim jarayonining komponentlarini o'z ichiga olib, unda o'qitish va foydalaniladigan vositalar, muayyan maqsad – vazifalarni hal qilish uchun ta'limning usullari, mazkur jarayonda mustaqil ishlaydigan ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi hamda ko'rgazmali va texnik vositalar ishtiroki ta'minlanadi.

Ta'lim jarayoni – bu ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagog faoliyat bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarning o'qish – o'qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonini amalga oshirishning samarali yo'llari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi uzviy aloqa orqali qo'lga kiritiladi. Shu sababli ham ta'lim jarayonida va uni boshqarishda teskari aloqa (ta'lim jarayonini borishini nazorat qilib borishdagi joriy va oraliq natijalarni aniqlash vositasi) ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materialini anglab yetishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bu erda teskari aloqa ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi rejalashtirilgan maqsad sari to'g'ri borayotganligini aniqlab va kerakli hollarda jarayon kechishini rostlashda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Uning yordamida rejalashtirilgan maqsadga erishishning optimal variantini tanlash kafolatlanadi. Bu orqali ta'lim oluvchilar o'quv materialini mohiyatini anglab yetadilar, optimal yechimlarni izlab topadilar, pedagogik amaliyotda ma'lum bo'lgan g'oyalar va qonuniyatlarni, shuningdek, ta'lim oluvchilar o'zlarining intellektual salohiyatlarini takomillashtiradilar.

Demak, ta'lim jarayoni, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida uzviylik hamda uzluksizlik, ya'ni aloqadorlik pedagogik jarayonning muhim komponentlari ekan. Bunda o'qish jarayonining quyidagi g'oyalariga doimo ahamiyat berishga to'g'ri keladi:

- o'qish – bevosita bajariladigan jarayon bo'lib, uning yordamida ta'lim oluvchilar butun hayotlari davomida yangi axborotlar oladi;

- bolalarni o'qitishga o'rgatishning o'zi kamlik qiladi, ularni chuqur o'ylanib o'qishga o'rgatish kerak va bular natijasida ta'lim oluvchilarda yangi fikr paydo bo'lib, ularning ilmiy ijodga kirib kelishi ta'minlanadi;

- o'qish – oddiy o'rganish fani emas, balki fikrlash va dunyoni bilish qurolidir;

- o'qish va o'qiganda javoban ta'sirlanish tanqidiy tahlilning asosiy yo'lidir;
 - har xil fanlarni o'rganish, odatda ta'lim oluvchidan juda ko'p mustaqil o'qishni talab qiladi, shuning uchun o'qish jarayonini tushunish aniq fan bo'yicha o'qilganni o'zlashtirishni va tahlil qilishni yaxshilash mumkin.

Demak, ta'lim jarayonidagi ta'lim oluvchi holati ham ushbu sohadagi faoliyatni optimal variantlarini qo'lga kiritishda mustahkam didaktik asos bo'lar ekan. Bu borada ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini, ruhiy va fiziologik salomatligi hamda ulardagi quvonch hissi ta'lim jarayonida o'ta muhimdir.

Ta'lim jarayoni komponentlari bilan quyidagilarni ham kiritish mumkin:

- ta'lim beruvchilar;
- DTS, o'quv reja va o'quv dasturlar;
- darslik, o'quv qo'llanma va shu kabilar;
- o'qitish vositalari;
- fanlar bo'yicha nazariy materiallar;
- fanlar bo'yicha amaliy materiallar;
- fanlar bo'yicha didaktik materiallar;
- laboratoriya va ustaxonalar jihozlari;
- amaliyotlar;
- axborot – kommunikatsion texnologiya vositalari.

Ta'lim natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayoni ma'lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va u shaxsning qarashlari, e'tiqodi hatti – harakatlari, umumiy kamolotiga, pirovardida esa uning xulqiga ta'sir etadigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmuasining shakllanishiga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Bundan ko'rinish turibdiki, o'qituvchilar faoliyati uchun muhim bo'lgan bilimlarni o'rgatib, zarur malakalarni shakllantiradi. Har bir ishni amalga oshirish uchun inson qandaydir vositalardan foydalanadi. Shu jumladan ta'lim berishda ham biz turli vositalardan foydalanamiz. Shuning uchun bunday vositalarni biz didaktik vositalar deb ataymiz.

Didaktik vosita nima? Bu savolga javob berish uchun biz avvalo «vosita» so'zining ma'nosini esga olaylik. Yuqorida aytib o'tganimizdek biror bir ishni sifatli va samarali amalga oshirishimiz uchun biz albatta tegishli vositalardan foydalanamiz. Ta'lim berishda didaktik vositalardan foydalanamiz.

Vosita - o'quv jarayonini predmetli qo'llab – quvvatlanishi. Vositalarga o'qituvchining jonli nutqi, keng ma'noda uning mahorati, darsliklar, sinf jihozlari va boshqalar.

Ta'lim vositalari - o'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib borishini ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jihozlari, o'quv qo'llanmalari va boshqalar.

Didaktik vositalar va tarqatma materiallar – bu ta'lim jarayonida zarur bo'lgan jihozlar, kompyuterli vositalar, modellar va maketlar, ko'rgazmalar va texnik vositalar, asbob – uskunalar va mahsulotlardir. Shuningdek, o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan tarqatma materiallardir. Ular: kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, qiziqarli savol va topshiriqlar, amaliy ishni tashkil etish bo'yicha texnologik xaritalar va hokozalardir.

Prof. B.Ziyomuhammadovning ijod mahsulida **didaktik materiallar** – pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan, dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchi – talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi, deb qayd etiladi. Bularga turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yinlar va hokozalar kiradi. Didaktik materiallar ham didaktikaning tamoyillariga mos ravishda yaratiladi. Dars jarayoni faqat usul va uslublar orqali amalga oshirilib, darsning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogsiz va talabasiz hamda o'quv dasturi va rejasiz dars o'tib bo'lmagani kabi, pedagogik usullar va uslublarsiz darsni amalga oshirib bo'lmaydi.

Pedagogika kursidan bizga ma'lum bo'lganidek, didaktika, ya'ni grekcha «didaktos» so'zidan olingan, ta'lim bermoq yoki ta'lim nazariyasi degan ma'noni anglatishini esga olishning o'zi kifoya. Didaktik vositalar - bizga tanish, hayotimizda uchraydigan, hatto biz

foydalanib yurgan vositalar bo'lishi mumkin. Ularning hammasi ham aynan ta'lim berish uchun ishlab chiqarilgan vosita bo'lishi shart emas. Shu jihatdan olganda didaktik vositalardan foydalanishni o'rganish osonroq. Faqat qo'llanilayotgan vositaning didaktik imkoniyatlarini aniqlab olish zarur. Masalan, televideniyani olsak, u turmushimizda dam olish uchun qo'llaniladigan maishiy texnik vosita bo'lsa, aholi orasida targ'ibot ishlarini olib borishda ommaviy axborot vositasi hisoblanadi. Lekin undan ta'limda ham keng foydalanilmoqda. Masalan, masofadan turib o'qitishda u didaktik vosita sifatida qo'llanilmoqda.

Didaktik vositalar o'quv jarayonida muhim o'rin tutadi. Chunki ular o'quv jarayonining asosiy tashkil etuvchilaridan biri hisoblanadi. Didaktik vositalar o'quv jarayonida o'qituvchilarning eng yaqin yordamchisi hisoblanadi. O'quv jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- nazariy mashg'ulotlarda o'quvchilarga yangi bilimlarni berish uchun mavzuga doir o'quv materiallarini tushuntirish, namoyish qilish, tahlil qilish kabi ishlarda foydalanamiz;
- amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarga tanlagan kasblariga oid vazifalarni bajarishga doir malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun bajariladigan ishni namuna sifatida amalga oshirish, mashq qilish kabi ishlarda foydalanamiz;
- nazorat mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilimlarini baholash uchun turli testlar va dasturlardan foydalanamiz;

Bundan tashqari auditoriyadan tashqari ishlarni olib borishda va turli tadbirlarni o'tkazishda ham didaktik vositalarsiz ko'zlangan maqsadga erisha olmaymiz.

Xulosa. Endi bir tasavvur qilib ko'raylik, mashg'ulotda biror bir texnologik mashina yoki jihozning ishlash prinsipi to'g'risida o'qituvchi faqat og'zaki usul bilan qay darajada o'quvchilarga ma'lumotlarni bera olardi. Agar bu ishda o'qituvchi shu texnologik mashina yoki jihozning prinsipial sxemasidanmi, uning virtual yoki aynan modelidanmi, unga doir videomaterialdanmi foydalansa, o'quvchilarning uni tushunishlari, tasavvur qilishlari qay darajada oson bo'ladi. Buikki vaziyatni solishtirsak natija yaqqol sezilib turadi. Albatta, ikkinchi vaziyatda samara yuqori bo'ladi. O'quv jarayonida olib boriladigan mashg'ulotlarda biz faqat og'zaki usul bilan, tushuntirish bilan kifoyalanmasdan, barcha turdagi o'quv axborotlaridan foydalanamiz. Bular sonli va yozma ko'rinishda, ovozi va tasviriy ko'rinishda, hajmiy va harakatli ko'rinishda, elektron va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda biz har bir didaktik vositaning imkoniyatlarini bilib olsak, ularning har biridan qaysi vazifani, qanday amalga oshirishda foydalanish samaraliroq ekanini bilib olamiz. Buning uchun biz avvalo didaktik vositalarning tasnifi (klassifikatsiyasi) bilan tanishib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnye texnologii obucheniya. M. 1995 g.
2. Bespalko V. P., Tatur Yu.G. Sistemno-metodicheskoe obespechenie uchebno-vospitatelnogo protessa podgotovki spetsialistov. Uch. metod. posob. M. «VSh». 1989 g.
3. Musurmonova O., va boshqalar. O'quv ishlab chiqarish ta'limi. O'quv uslubiy qo'llanma. T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti. 2004 y.
4. Olimov Q.T., O.A.Abduquddusov, L.P.Uzoqova, M.M.Axmedjonov, D.F.Jalolova. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: «Moliya», 2006 y.
5. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – T. 10. – №. 12. – С. 1224-1227.
6. Ahmadov O. БУХОРО АМИРЛИГИДА ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИ. ЮТУҚЛАРИ ВА МУАММОЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
7. Ахмедов О. Ш. ОБРАЗОВАНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ОСНОВЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ПРАВИТЕЛЕЙ) //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 10-13.

8. Ahmadov O. BUXORO BOSMAXONA VA NASHRIYOTLARIGA TEXNIKA SOHASIDAGI YANGILIKLARNING KIRIB KELISH TARIXIDAN (1920-1924-YILLAR) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Ahmadov O. XIX asr oхири-XX asr биринчи чорагида Бухорода таълим-тарбия тизимининг манбавий асослари ва адабиётлар таснифи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 4. – №. 4.
10. Аҳмадов О. Ш. МОЛОДЕЖЬ, ВЛАСТЬ, ОБЩЕСТВО: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ.
11. Ражабов ҚҚ, И. Қ., Исмаилов, А. Ф., Ахматов, А., Амонова, Ф., Жумаев, Р. Ф., Аҳмадов, О. Ш., ... & Исамова, П. Ш. ТАЪЛИМ ВА ИННОВАТСИОН ТАДҚИҚОТЛАР ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH.
12. Olimjon A. БУХОРОДА ЯНГИ УСУЛ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МУАССАСАЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИДАГИ ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИНИНГ ЎРНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
13. Khasanov, Ahmadov O. Sh. "MAHMUDXO 'JA BEHBUDIY-TURKISTON JADIDCHILIK HARAКATI YO 'LBOSHCHISI." MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2.21 (2023): 143-150.
14. Olimjon A. XIX ASR OXIRI XX ASR I-CHORAGIDA BUXORODA JADID MAKTABLARINING TA'LIM-TARBIYA TIZIMI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
15. Sh, Ahmadov O. "O'QUVCHILARDA O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI." JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING 2.8 (2023): 65-70.
16. Ahmadov, O. S., and Abduvakhob Turayev. "Pedagogical theoretical foundations from the history of the origin of physical education." *International Conference on Business Management and Humanities*. Vol. 1. No. 2. 2023.
17. Ahmadov, O. S., and Sherizad Islamatdinov. "Pedagogical theoretical foundations of the formation of educational motives in students." *International Conference on Multidisciplinary Research*. Vol. 1. No. 2. 2023.
18. Ahmadov O. S., Boboyev H. The role and significance of extracurricular educational work in the formation of spiritual and moral education //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 121-123.
19. Ahmadov O. S., Kahramanov O. Theoretical foundations of pedagogical technologies in educational processes //Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 61-63.